

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

U.X.Eshmuradov	
Til o'rganishda tinglashning ahamiyati va tinglab tushunish muammolari: til o'rganuvchilar tajribasi	325
M.E.Tursunova	
Anglitizmlarning media mayondagi faoliyat xususiyatlari	329
H.A.Ne'matova	
Hoji Muinning "Kattaqo'rqon xotiralari" safarnomasi	332
A.M.Mamadjanov	
Ta'lim muassasalarida fuqarolik muhofazasi darslarini o'tkazish bo'yicha metodik tavsiyalar	336
M.I.Ehsanova, N.B.Salimova, M.A.Yulchiyeva	
So'z o'zlashtirish hodisasi talqini va uning til lug'at tarkibi boyishidagi o'rni	339
N.Y.Ortikova	
Fonetik hodisalar va tovush o'zgarishlarining badiiy-estetik vazifalari (Anvar Obidjon she'riyati misolida)	342
A.M.Yuldashev	
Alisher Navoiy asarlarida so'z tavsifi	349
N.A.Rasulova	
Lingvistikada funksional tahlilni tavsiflash	357
D.J.Jurayeva	
Zahiriddin Muhammad Boburning muhabbat falsafasining o'ziga xos xususiyatlari va estetik tahlili	362
K.Q.Axmedova	
Ijtimoiy tarmoqdagi muloqotning lingvostilistik xususiyatlari.	366
R.Y.Xolikov, O.A.Qo'chqarov	
Shaharlar tuproqlarining texnogen ifloslanishi va uning ekologik oqibatlari.	370
F.M.Tillaxo'jayeva	
Vodiyning iqtisodiy rivojlanishida nemis tadbirkorlarning hissasi	374
A.Goipov	
Burchakni teng uchga bo'lishning bir usuli haqida (burchak triseksiyasi haqidagi masala)	378
A.A.Boltayev	
Ibn Arabiy va ta'vil ilmi	380
L.Alimardonov	
Jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy-siyosiy reklamaning rolini tadqiq etishning nazariy asoslari.....	385
Z.Y.Xamraqulov	
Jinoyat huquqining o'qitilishida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish asoslari.....	388
S.Parmanov	
Siyosiy madaniyatning shakllanishi bilan bog'liq tahlillar	393
R.Urazova	
Avesto yashlarida mitranning sifatleri	397
Sh.X.Xonqulov	
Hamza Hakimzoda Niyoziy o'limining O'zbekiston SSRdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarga ta'siri.....	404
Sh.B.Murtozayev	
Abu Hafs Umar Suhravardiy inson nafsini anglashga doir falsafiy qarashlarining tahlili.....	411
U.E.Qurbonov	
Mishel Monten falsafasida gumanistik antropotsentrizm masalalari	415
I.Ch.Shermanov	
Bioetika: fan-texnologiya va ishlab chiqarish jarayonidagi ahamiyati (<i>ijtimoiy-falsafiy tahlil</i>)	419
U.A.Azimov	
Yoshlarning demokratik islohotlarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlili.....	424
A.A.Abdumalikov	
Jamiyatda uzluksiz ta'lim tizimining shaxs ekologik madaniyati yuksalishidagi roli	428
X.N.Xolmirzaev	
Jamiyat taraqqiyotida inson salohiyatini namoyon bo'lish omillari.....	434

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY O' LIMINING O'ZBEKISTON SSRDAGI IJTIMOYIY-SIYOSIY VA MADANIY JARAYONLARGA TA'SIRI**THE INFLUENCE OF THE DEATH OF HAMZA HAKIMZODANIAZI ON SOCIO-POLITICAL AND CULTURAL PROCESSES IN THE UZBEKISTAN SSR****ВЛИЯНИЕ СМЕРТИ ХАМЗЫ ХАКИМЗОДА НИАЗИ НА СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ И КУЛЬТУРНЫЕ ПРОЦЕССЫ В УЗБЕКИСТАНСКОЙ ССР****Xonqulov Shavkatjon Xursanalievich¹****¹Xonqulov Shavkatjon Xursanalievich**

– Farg'ona politexnika instituti, t.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziy o'z vaqtida lirik she'rlar, ma'rifiy kitoblar, dramalar muallifi sifatida tanilgan. Ayni paytda u yurtimizda sovetlar hokimiyati o'rnatilganidan so'ng sovet hukumati mafkurasining kurashchisi va targ'ibotchisiga aylangani, vafotidan keyin esa uzoq yillar davomida "o'zbek sovet adabiyoti va madaniyatining asoschisi" kabi balandparvoz ta'riflar bilan soxta qadrlanib kelinganligi aks etgan. Ya'ni bunday siyosat zamirida mahalliy xalqdan chiqqan yozuvchi, ziyoli inson sotsializmga, markazdagi rahbarlarga ana shunday sadoqat bilan xizmat qilishi kerak, degan ayyorona va siyosiy g'oyalari yoritilgan

Аннотация

В этой статье Хамза Хакимзаде Ниази был известен как автор лирических стихов, учебных книг и драм. В то же время показано, что после установления в нашей стране советской власти он стал борцом и пропагандистом идеологии советской власти, и на протяжении многих лет после его смерти его ложно ценили высокими определениями типа «основоположник узбекской советской литературы и культуры». То есть в основе такой политики высвечивают хитрые и политические идеи, что писатель и интеллигент из местного народа должен с такой лояльностью служить социализму и вождям в центре.

Abstract

In this article, Hamza Hakimzade Niazi was known as the author of lyrical poems, educational books and dramas. At the same time, it is shown that after the establishment of Soviet power in our country, he became a fighter and propagandist of the ideology of Soviet power, and for many years after his death he was falsely valued by high definitions such as "the founder of Uzbek Soviet literature and culture." That is, at the heart of such a policy, cunning and political ideas are highlighted that a writer and intellectual from the local people should serve socialism and the leaders in the center with such loyalty.

Kalit so'zlar: Xalq sudlari, "Hujum", byust, kommunistik, mafkura, teatr, san'at, dramaturgiya, drama, vaqf mulklari, p'esa, aktyor, adabiyot.

Ключевые слова: Народные суды, «Атака», бюст, коммунист, идеология, театр, искусство, драматургия, драматургия, основные свойства, пьеса, актер, литература.

Key words: People's courts, «Attack», bust, communist, ideology, theater, art, dramaturgy, drama, foundation properties, play, actor, literature.

KIRISH

Jahon miqyosida yuz berayotgan globallashuv jarayonlari har bir davlat, siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy munosabatlar tarixini, uning rivojlanish istiqbollarini, shuningdek xalq va yurt manfaati, taqdiri uchun qayg'urgan muayyan davr adabiyoti vakillarining faoliyatini keng, chuqur tadqiq etish muhimligini ko'rsatmoqda. Shu ma'noda Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti va ijodiy faoliyatini qayta o'rganish hamda uning boy adabiy merosiga qadriyatlar bilan uyg'unlikda, yangicha yondashuvda tadqiq etish ehtiyojini vujudga keltirmoqda. Mustaqillik yillarida jadidchilik harakati va uning vakillariga nisbatan munosabatning o'zgarishi A.Fitrat, M.Behbudiy, S.Ayniy, M.Abdurashidxonov, A.Avloniy, A.Qodiriy, A.CHo'lpon singari ma'rifatparvarlarning ma'naviy-ma'rifiy merosini qayta baholashda yangi bosqichni boshlab berdi. Bular orasida Hamzaning sovet tuzumi davrida xolis ilmiy tadqiq etishga yo'l berilmagan biografyasi va ijodining turli xil talqinlari maydonga keldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Hamza Hakimzodaning Farg'ona vodiysida kechgan ijtimoiy-madaniy jarayonlardagi rolini o'rganish bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Tadqiqot mavzusi ma'lum ma'noda o'z aksini topgan asarlarni quyidagi uchta guruhga ajratish mumkin: Ya'ni 1) sovet davrida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar; 2) mustaqillik yillarida O'zbekistonda nashr qilingan ishlar; 3) xorijiy tadqiqotlar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

XX asrning 30-yillariga kelib O'zbekistonda bolsheviklar hokimiyatining islom diniga qarshi olib borgan siyosati mafkuraviy jihatdan xalqning o'tmishi, ma'naviyati, madaniy merosi va milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan asriy etiqodidan mahrum etib, kishilar ongida yagona kommunistik mafkurani qaror toptirish maqsadiga qaratilgan edi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun bolsheviklar, eng avvalo, islom dinini targ'ib etuvchi diniy ulamolardan qutulishini lozim deb topdilar. Diniy ulamolar va dindorlarga qarshi kurash ularning belgilangan soliqlarni o'z vaqtida to'lamaganligi aybi vositasi bilan ham olib borilgan. Bunday ulamolarning ishi joylarda Xalq sudlari hukmiga topshirilgan[1, 86]. Shu yillarda madrasa, maktab, masjidning vaqf mulklari tugatilib, ma'naviyat muassasalari deyarli yopildi. Ularning binolari uy-joy, omborlar, ta'mirlash ustaxonalariga aylantirildi[2, 286].

Qolaversa, Hamza Hakimzodaning oldindan puxta ishlangan reja asosida o'ldirilishi va shunga o'xshash uyushtirilgan "qonli ssenariylar"²⁶ning sodir bo'lishi oqibatida keng jamoatchilik ommasi orasida dindorlarga bo'lgan munosabatni bir oz bo'lsada zaiflashtirishga erishdilar. So'ng bu qotillik bolsheviklarning yangi uslubdagi maktablarini tamomlagan sovet targ'ibotchilari bo'lgan yozuvchi va shoirlar tomonidan namuna sifatida foydalanildi[3, 319].

Tarixchi olim Q.Rajabovning yozishicha, qatag'on qilichi faqat Farg'ona vodiysidagi ulamolarga qarshi qaratilmadi. 1929 yilda Buxorodagi bir guruh ulamolar va mullalar ham Hamzaning o'ldirilishiga aloqador kishilar sifatida qamoqqa olinib, otib tashlandi. Ko'pchilik ulamolar surgun qilindi. "Beshariq ishi", "Karmana ishi", "Ulamolar ishi" kabi turli-tuman siyosiy ishlar to'qib chiqarildi hamda o'zbek xalqining ko'plab asl farzandlari sovet rejimi tomonidan qatag'on qilindi[4, 444]. O'sha davrning mudhish voqealari haqida Zulayho Qayumovaning hikoyasi e'tiborni tortadi: "1929 yilning oxirlari otamni tuhmatchilar qamatishdi. Unga sud hukmi bilan o'n yil qamoq jazosi berildi. Otamni Toshkent qamoqxonasidan olib ketishadigan kunda Oloy bozori yaqinidagi qamoqxona darvozasi oldiga borib turdim. Toshkent yuk-tovar stansiyasida bir uzun yuk poezdi turardi. Uning qizil vagonlari qari-qartang mahbuslar bilan to'la edi. Surishtirsak, bu mahbuslar shoir Hamza o'limi bahonasida Tojikiston va Turkmanistonda hibsga olingan ulamo va ruhoniylar ekan. Toshkentlik mahbuslarni ham shu poyezdga joylashtirishdi. 1929-yildagi qatag'onga shoir Hamza o'limi sabab bo'lgan, shu bahonada butun O'rta Osiyodagi ko'zga ko'ringan dindorlarni qamoqqa olishgan" [5, 11-12]. Ulamolarning qatag'on qilinishi faqat Hamza Hakimzoda Niyoziyning o'limi bilan bog'liq bo'lmay, bu fitna o'tkaziladigan tadbirni tezlatish uchungina uyushtirilgan edi. Hamza Shohimardonda xurofotga qarshi kurashdi. Lekin bu shoirning o'zi e'tiqod qilgan islom diniga qarshi kurashdi, degani emas. U xalqning madaniyat va ma'rifat yo'lini to'sadigan salbiy diniy aqidalarni bartaraf etish uchun harakat qildi. OGPUning xabar berishicha, ziyoratgoh himoyachilari ham o'z navbatida, qizil choyxonani yakson etib, undagi barcha adabiyotlarni yoqib, sovet hukumati, "Hujum" kompaniyasiga qarshi turli gaplar chiqarganlar[6, 352].

E'tibor qilinsa, Hamza go'yo surgun qilingan odamga o'xshaydi. U hamisha Toshkent, Qo'qon, Samarqand singari madaniy markazlardan yiroq tutildi. O'sha yillarda birorta kitobi nashr etilmadi. Hamma bitganlari qo'lyozma xolida yoki vaqtli matbuot sahifalarida qolib ketdi. Sovet hukumati shoirni atay eng xavfli joylarga, qaltis ishlarga yuborar edi. Aks holda, Farg'ona vodiysi qishloqlarida kolxozlar barpo etish xo'jalik ishlaridan mutlaqo yiroq shoir odamga buyurilmagan bo'lardi. Hamza hayoti va ijodiy faoliyatining ayrim qirralari bilan, ayniqsa "dindorlar tomonidan toshbo'ron qilib o'ldirilgani bilan" bayroqdorlik martabasiga yagona nomzod edi. Bu paytda jadidlar qatag'onga uchragan, shoirning hayoti va ijodi haqida esa 1929-yildan boshlab gazeta va jurnallarda maqolalar chop etila boshlangan edi. Shunday maqolalardan dastlabkisi Naim Saidning maqolasi bo'lib, unda shoirning ijtimoiy va badiiy faoliyati yoritib beriladi[7]. Keyinroq "Yangi Farg'ona" gazetasida "Hamza Hakimzoda" sarlavhali maqola bosilib chiqadi. Bu maqola jurnalist, shoir va jamoat arbobining qisqa tarjimai holi bo'lib, uning jurnalist sifatidagi xizmatlari baholanadi.

²⁶ Xo'jand okrugi Isfara tumanidagi Vorux qishlog'ida 1929-yilning bahorida ziyoratgoh va mozorni mahalliy aholi noroziligiga qaramay, uzumzor dalasiga ajratiladi. Uzumzorni yangi rahbari mozorga suv haydaydi. Bundan g'azablangan qishloq ahli mahalliy komsomollarni kaltaklab, qizil choyxonani vayronaga aylantiradi. Kaltaklanganlar markaz Isfaraga borib militsiyani boshlab keladi. Oxiri viloyat markazi bu ishga aralashadi. Uzumzor rahbari ham, qizil choyxonana buzgan etti kishi ham qamaladi. Bir oz vaqtdan keyin uzumzor rahbari qo'yib yuboriladi. Qarang: Холид А. Ўзбекистон таваллуди: илк СССР даврида миллат, империя ва инқилоб. – Б. 353.

1921-yil 7-mayda tuzilgan "Namuna" o'zbek truppassi[8] 1929-yilning kuzida O'zbek Davlat Drama teatriga aylantirildi va bu birinchi sovet teatriga Hamza Hakimzoda Niyoziy nomi berildi[9, 17]. Shu yillarda Hamzaning ijtimoiy faoliyati va badiiy merosini o'rganish chuqurlashdi va uning ijodi o'rta maktablar dasturi va darsliklariga kiritildi[10: 54]. SHoirning tug'ilganligiga 50 yil to'lishi munosabati bilan Farg'ona viloyati Shohimardon qishlog'iga va qishloq fuqorolari yig'iniga Hamzaobod nomi berildi. Shuningdek, Toshkent musiqa maktabi, Farg'ona, Qo'qon, Andijon shaharlarining ko'chalaridan biriga Hamza nomi berilib, uning qabrini tiklash uchun zarur mablag' ajratildi[11].

Hamza Hakimzoda Niyoziyning asarlari qayta nashr etildi. Ma'lumki, shoirning fojeali o'limidan so'ng uning asarlarining asl nusxalari yo'qolgan bo'lib, ayrimlari uning yaqin do'stlari qo'lida saqlanib kelinar edi. Hamza haqidagi adabiyotlarda uning shaxsiy arxivi to'g'risida turli-tuman fikrlar mavjud. Hamzaning nashr etilmagan asarlari taqdiri haqidagi dastlabki ma'lumotni Sobir Abdulla beradi. U o'zining "Hamza haqida bilganlarim" maqolasida shoirning yaqin do'sti Qora Maxsum Yusupov to'g'risida so'zlab, uning Bokuda, o'z uyida Hamzaning kichik tanburi va qo'lyozmalari saqlanganligini aytadi. Shoir maqola oxirida Qora Maxsum Yusupovning Bokudagi oilasi qo'lida qolib ketgan bir sandiq Hamza qo'lyozmalarini qaytarib olish lozimligini ta'kidlaydi. Shundan keyin Qora Maxsum Yusupov ixtiyorida Hamza arxivini qaytarib olishga urinishlar samara bermadi. Ma'lum bo'lishicha, Yusupovning vafotidan so'ng uning uyidagi qog'ozlardan urush yillarida yoqilg'i sifatida foydalanilgan ekan[12, 281]. Hamza asarlari to'g'risida Ro'ziboy Qambarov "Hamzaning yozib qoldirgan bir qancha she'r va asarlari yo'qolgan. U o'lgan vaqtda Yusuf qora (Qora Maxsum Yusupov) degan kishi Hamzani ko'mish komissiyasida bo'lgan. Hamzaning ikki pudga yaqin bir yashik materiallari bor edi. Men shu materiallarni Yusuf qora olib ketgan deb o'ylayman. Bundan tashqari ariq qazishda, ishlab turgan vaqtimizda va mitingda olingan rasmlar ham Shohimardonda yo'qolgan" [13], -deb yozadi.

Lekin yuqoridagi fikrlarni inkor qilgan holda aytish mumkinki, agar haqiqatdan ham Qora Maxsum Yusupov Hamza qo'lyozmalarini olib ketib, saqlagan bo'lsa, 1939 yil respublikada tashkil etilgan hukumat komissiyasi xabardor bo'lgan, shoir arxivini qaytarish choralarini ko'rgan bo'lar edi. Ikkinchi dalil, Hamzaning hozirda saqlanayotgan shaxsiy arxivi hujjatlari orasida Qora Maxsum Yusupov nomiga yuborgan biron bir maktub uchramaydi. Hamza asarlari Ikkinchi jahon urushi yillarida bir necha marta o'zbek va rus tillariga tarjima qilindi. Urush yillarida shoirning asarlari o'zbek xalqini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta rol o'ynadi. 1949 yil sentyabr oxiri va oktyabr boshlarida shoir yubileyi munosabati bilan uning ijodi yanada chuqurroq o'rganildi, ilk she'rlar to'plami "Devoni Nihoniy" topildi va qisman e'lon qilindi. "Devoni Nihoniy" professor Izzat Sultonov tomonidan davrga moslanib, sahifalariga ko'plab tuzatishlar va o'zgartirishlar kiritilib, nashrdan chiqdi[14, 281-282]. 195-yil 16-mayda O'zbekiston SSR Xalq rassomlari L.Abdullaev, V.Kaydalov va Stalin mukofoti sohibi Ch.Axmarovlar O'zbekiston SSR Ministrlar soveti raisi o'rinbosari M.Qo'chqorovga Hamza Hakimzodaning xokini ko'chirish yuzasidan xat yozadi[15]. 1952-yil 31-mayda O'zbekiston yozuvchilar soyuzi vakillari Shohimardonda Hamza Hakimzoda Niyoziyning xokini ko'chirish tadbirlarida sarflanadigan mablag'ni hisoblab chiqadilar[16]. Barcha tayyorgarliklardan so'ng, 1952-yil 17-iyulda O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining № 1261 qaroriga ko'ra Shohimardonda Hamza Hakimzoda Niyoziyga yangi mavzoley barpo etish uchun A.M.Qo'chqorov raisligida hukumat komissiyasi tuzilib, 15500 so'm pul mablag'i ajratiladi[17].

Shu yili SHohimardonda (Hamzaobod) A.Boboxonov loyihasi bo'yicha shoir uchun maxsus maqbara qurib bitkazildi va 1952-yil 15-sentyabrda shoirning xoki shu maqbaraga ko'chirib o'tkazildi[18]. Uning faoliyati bilan bog'liq memorial muzey tashkil qilindi. Muzey binosiga kiraverishda E.Tomko tomonidan tayorlangan Hamza byusti o'rnatildi[19]. Shoirning xokini yangi mavzoleyga ko'chirish tadbirlarida A.M.Qo'chqorov, R.Sobirov, M.M.Sheverdin, Milchakov, Kulagin, Zulfiya va Abdulla Hatamovlar mas'ul qilib belgilandi. Bu tadbir ko'tarinki kayfiyatda o'tkazilib, respublika va viloyat idoralari, Qirg'iziston SSRdan mehmonlar, Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon shaharlaridan maktab o'quvchilari va SHohimardon aholisi ishtirok etdi[20]. Hamza Hakimzoda Niyoziyning xokini maqbaraga ko'chirish bilan bog'liq tadbir qiziq ma'lumot uchraydi. Bu haqida tadbir ishtirokchisi X.Qulfiddinov shunday hikoya qiladi: "1952 yil 15 sentyabr kuni H.H.Niyoziyning qabrini Shalang tepaligidan olib, Mozor tepaligiga qayta dafn qilish uchun hukumat qaroriga ko'ra tuzilgan maxsus komissiya ish boshlab, qabrni ochadi, lekin u joydan jasad chiqmaydi. Shohimardonlik keksalar bilan gaplashilganda ularning barchasi bundan voqif emasliklarini bayon qilishadi, shunda ikki daryo qo'shilish joyida mayda-chuyda sotib, attorlik qilib o'tiruvchi bir nuroniy bu sirdan voqifligini aytadi va komissiya a'zolarining iltimosiga ko'ra

ILMIY AXBOROT

Shalangga chiqib, shoir qabridan olti qadam pastga va uch qadam kunchiqarga odimlab: “shu erni kavlanglarchi”, deb aytadi. Kavlashsa, haqiqatdan ham o’sha erdan shoirning jasadi solingan, taxtalari chirish holiga kelib qolgan tobut chiqadi. Maxsus mutaxassislar tomonidan jasad qoldiqlari yangi tobutga joylanib, mozor tepasida qurilgan maqbaraga qayta dafn qilinadi. Ushbu tadbirda tuman va viloyat rahbariyatidan vakillar va O‘zbekiston xalq shoiri G‘afur G‘ulom, shoir Mirmuhsin, Zulfiya hamda Qadamjoydagi zavod rahbari, vodillik Fazliddin Yo‘ldoshevlar ishtirok etadilar” [21, 39].

Yuqoridagi muallifning ma‘lumotidan anglashiladiki, Hamzaning dafn etilishida ishtirok etgan shaxslar ma‘lum sabablarga ko‘ra shoirning dushmanlari qabrni toptamasliklari uchun ehtiyot qilishgan bo‘lishi mumkin. Chunki, sovet hukumatining ayrim idoralari uchun tirik odamni o‘ldirish va qayta tiriltirish, mavjud partiyani xudo deb bilish ta‘limoti yaxshi yo‘lga qo‘yilgan edi. 1954-yil mart oyida Hamzaning vafotiga 25 yil, tug‘ilganiga 65 yil to‘lishi munosabati bilan yubiley o‘tkazildi. Unga bag‘ishlab shoirning asarlari rus va o‘zbek tillarida nashr qilindi, gazeta va jurnallarda qator maqola va xotiralar bosilib chiqdi. Y.Sultonov va A.Boboxonovlarning Hamza ijodi haqidagi asarlari yaratildi va ilmiy sessiya bo‘lib o‘tdi [22, 262]. 1956-yil 15-yanvarda O‘zbek Davlat akademik drama teatrida “Boy ila xizmatchi” dramasi 500 marta sahnada o‘ynalishi tantanali ravishda nishonlandi. 1957-yilda SHohimardonda Farg‘ona viloyat o‘lkani o‘rganish muzeyining filiali sifatida Hamza muzeyi ochildi. Oradan bir yil o‘tib Hamza asarlari “Izbrannoe” sarlavhasi bilan Moskvada nashrdan chiqdi. Sovet hokimiyati o‘z mafkurasini yoyishda Hamza asarlaridan unumli foydalandi. Uning asarlari ko‘plab xorijiy tillarga tarjima qilindi. 1959-yilda Hamzaning “Paranji sirlari” asari Gorkiy nomidagi rus drama teatrida katta muvaffaqiyat qozondi. 1959-yil aprel oyida Qo‘qonda shoir tug‘ilgan va oilasi yashagan uy Hamza uy muzeyiga aylantirildi. 1960-yil yanvar-fevral oylarida shoirning tavalludining 70 yilligi munosabati bilan ikki tomlik Asarlar to‘plami nashrdan chiqdi [23, 107].

Shoir yubileyi munosabati bilan unga qo‘yiladigan xaykal loyihasi bo‘yicha tanlov o‘tkazildi. Xaykallar loyihasi ko‘rgazmasida 30 dan ortiq loyiha namoyish etildi. 1961 yilda “O‘zbekfilm” kinostudiyada rejissyor Zohid Sobitov tomonidan “Hamza” nomli film suratga olinib, bosh rolni taniqli o‘zbek aktyori Olim Xodjaev ijro etgan. Shu yilning 8 fevralida “Vatan” kinoteatrida o‘zbek tilida, 9 fevralida “Iskra” kinoteatrida rus tilida namoyish qilindi [24]. O‘zbekiston SSR Madaniyat vazirligining tabiiy-ilmiy targ‘ibot muzeyiga hamda O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasining San‘atshunoslik institutiga, Amudaryo flotining teploxodlaridan biriga Hamza nomi berildi [25, 57].

Hamza Hakimzoda Niyoziyning 70 yillik yubileyini o‘tkazish juda katta tayyorgarlik ko‘rildi. 1961-yil 7-feraldan Qo‘qon shahrida O‘zbekiston Fanlar akademiyasining “Hamzaning hayoti va ijodi” ga bag‘ishlangan ilmiy sessiya bo‘lib o‘tdi. Ilmiy sessiya shu‘balarga bo‘linib, bir vaqtda respublikaning ko‘plab shaharlarida o‘tkazildi. A.Udalov rahbarligida M.Shayxzoda, S.Akbary, M. Levievlar Samarqand va Buxoro shaharlarida, Uyg‘un rahbarligida V.Kostirya, M.Burxonov, X.Yoqubovlar Urganch shahrida, N.Safarov rahbarligida A.Ivanov, B.Gienko va M.Boboevlar Termiz shahrida, Abdulla Qahhor rahbarligida B.Parmuzin, I.Akbarov va SHuhratlar Nukus shahrida ishtirok etdilar [26]. Ilmiy sessiyada I.M.Mo‘minov rahbarligida taniqli olimlar va adabiyotshunoslar Oybek, Y.G‘ulomov, M.Yuldashev, V.Zohidov, I.Sultonov, Y.Rajabiy, A.Muxtor, A.Qayumovlar ishtirok etdilar. 1961-yil 11-fevralda Toshkent shahrida Butunittifoqdan tashrif buyurgan 37 nafar yozuvchi va adabiyotshunos olimlar ishtirokida ilmiy sessiyaning navbatdagi tadbiri o‘tkazilib, Hamza Hakimzoda Niyoziy faoliyatiga doir kitoblar ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi [27]. 1961-yil yanvar oyida Moskvadagi Kolonna zalida bo‘lib o‘tgan adabiy kecha shoirning ijodiy faoliyatiga bag‘ishlandi hamda uning jahondagi ahamiyatini yorqin namoyish etdi. 1964-yilda Hamza nomidagi O‘zbekiston SSR davlat mukofoti ta‘sis etildi. Bu mukofot o‘zbek sovet adabiyoti, musiqa, tasviriy san‘ati, teatr va kino san‘ati, arxitektura inshootlari, konsert faoliyati uchun beriladi. Mukofotga birinchilar qatorida Oybek, Zulfiya, Komil Yashin, Abdulla Qahhor, Nazir Safarov, T.Qaipbergenov kabi yozuvchi va shoirlar sazovor bo‘lishdi. Keyinchalik A.Muxtor, H.G‘ulom, Mirmuhsin, I.Rahim, S.Ahmad, Q.Muhammadiy, E.Vohidov, A.Oripov, O‘.Hoshimov, T.Po‘latov, L.Qayumov va S.Mamajonovlar erishdi. Kinomatografiya sohasida M.Turg‘unboeva, Tamaraxonim, M. Qayumov, SH. Abbosovlar ushbu mukofot sohiblari bo‘ldi. 1971-yil “Tanavor” baletini sahnaga qo‘ygani uchun N.Markaryans, kompozitor A.Kozlovskiy, dirijyor D.Abdurahmonovalar ham mukofotga erishdilar. 1973-yilda esa SSSR xalq rassomi O‘.Tansiqboev “Oqshom”, “Mening qo‘shig‘im”, “Jonajon O‘zbekistonim” kartinalari uchun Hamza mukofotiga sazovor bo‘ldi [28, 61].

1970-yillarga kelib H.H.Niyoziy va uning ijodiy yo'li yoritilgan maqolalar turli xorijiy davlatlarning ensiklopediyalaridan ham o'rin ola boshladi. 1969 yil uning "Boy ila xizmatchi" dramasi Mo'g'ulistonda, 1972-yil Bolgariyada nashr etildi. Mazkur asarning uyg'ur tilida nashr etilishi uning Xitoy Xalq Respublikasida ham keng tarqalishi uchun xizmat qildi. Shoirning "Maysaraning ishi" komediyasi shu yillarda polyak va fransuz tillariga o'g'irildi. Hamzaning "Tanlangan asarlar" to'plami 1980-yilda Budapeshtda venger tilida, she'rlari 1984-yilda Skopleda makedon tilida nashr etilishi bu mamlakatlarda shoir ijodi bilan tanishish imkonini berdi. [29, 282]. H.H.Niyoziy nomi ostida soxta epopeyalar yaratib, qanchadan qancha kishilar ilmiy va adabiy unvonlar, davlat mukofotlarini olishga erishdi. Bu g'ayri ilmiylikning eng yuqori namunasi sifatida "Hamza" badiiy filmi, keyinchalik 1977-1984 yillarda esa rejissyor [Shuxrat Abbasov](#) tomonidan "Olovli yo'llar" nomli ko'p seriyali film suratga olindi. Unda bosh rolni taniqli aktyor [O'lmas Alixo'jayev](#) ijro etgan. Ayniqsa, mazkur filmga o'sha paytdagi eng nomdor ssenarist, operator va san'atkorlar jalb etiladi. Bu film muallifining fikricha, boshdan oxirigacha "Hamza-O'zbekistonda sotsializmning tolmas kurashchisi", degan g'oyani targ'ib etishga qaratilgani bilan xarakterlidir. Ammo uydirmalar asosida yaratilgan mazkur film shoirga nisbatan hurmat-ehtiroمنى oshirish o'rniga unga bo'lgan ishonch va e'tiqodga putur etkazdi[30, 257]. 1982 yil Sotsialistik Mehnat Qahramoni, O'zbekiston xalq yozuvchisi Komil YAshin badiiy to'qimaga asoslangan obraz va voqealar aks etgan "Hamza" [31] romanini yozdi. Bu, o'z navbatida, Hamza ijodini har taraflama, ilmiy xolis o'rganilishiga to'sqinlik qildi. Mazkur roman ko'p yillar davomida shoirning ijodiga qiziqqan tadqiqotchilar uchun asosiy manba bo'ldi hamda Hamzaning asl o'tmish shu romanda aks etgan deb ishonildilar. Hamza nomini ulug'lash maqsadida o'limidan so'ng 1968-yilda "O'zbekiston Lenin komsomoli" mukofoti berildi[32].

Hamzaning nomini abadiylashtirish va ulug'lash maqsadida ayrim shaharlarga uning xaykallari o'rnatildi va ko'plab joylarga nomi berildi. 1967-yilda Qo'qonning Furqat nomli madaniyat va istirohat bog'i "Chorsu" maydoniga arxitektorlar A.Ahmedov va Y.Xaldeev, xaykaltarosh R.Nemirovskiy, L.Ivanovlar loyihasi asosida bronza va granitdan ishlangan Hamzaning besh metrlik xaykali o'rnatiladi[33: 89]. O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1968-yil 31-yanvardagi 77-sonli qarori bilan Kuybishev va Lenin rayonlarini ixchamlashtirish hisobidan Toshkent shahri tarkibida Hamza tumani tashkil qilindi[34: 94]. Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani Hamza nomidagi kolxoz hududida joylashgan qishloqqa ham Hamza nomi berildi. Namangan viloyatining Uchqo'rg'on rayonidagi qishloqlardan biri ham Hamza deb ataldi. Farg'ona viloyati Oltiariq tumanidagi Vannovskiy posyolkasiga 1963-yildan Hamza nomidagi posyolka bo'lib, 1974-yil 7-fevraldan shaharga aylantirilgan. SHuningdek, Toshkent metropolitenining bekatlaridan biriga Hamza nomi berildi²⁷. 1979-yilda esa Hamza Hakimzoda tavalludining 90 yilligi munosabati bilan Qo'qondagi uy muzeyi qayta ta'mirlandi. Farg'ona tumani Avval qishlog'ida yashagan hovlisi memorial uy-muzeyiga aylantirildi hamda SSSRning pochta konverti chiqarildi²⁸. Toshkent shahrining Hamza (Yashnobod) tumani hududida Hamzaning besh metr marmar tagsupaga o'rnatilgan to'qqiz metrlik xaykali moskvalik xaykaltarosh Nikos Faodoridis va toshkentlik, SSSR Davlat mukofotining laureati Sobir Odilovlar tomonidan o'rnatildi[35, 92].

Shuningdek, 1982-yili Rossiyaning Navashino shahrida o'zbek yozuvchisi Hamza Hakimzoda Niyoziy sharafiga nomlangan yangi teploxod ishlab chiqarilgan. Donetsk viloyatining Jdanov portida 1982-yil 30-mart kuni Azov dengiziga yangi teploxod tantanali ravishda suvga tushirildi. Mazkur teploxod "Hamza" nomi bilan Yugoslaviya, Italiya, Gretsiyaga safarlar uyushtirgan. Bu kema 1992-yili Ukraina hisobiga o'tkazilgan. 1999-yili Malta hisobiga o'tkazilgach,

²⁷ Novza – Toshkent metropoliteni Chilonzor yo'li bekatlaridan biri. Bekat nomi shu vaqtga qadar "Hamza" deb nomlangan edi. Bekat nomi Toshkent shahar xokimligi tomonidan 2015-yil 16-iyunda nomi Novza deb o'zgartirildi. Qarang: https://uz.wikipedia.org/wiki/Toshkent_metropoliteni

²⁸ "Farg'ona haqiqati" gazetasining 2020-yil 16-sentyabrdagi № 71-sonida Rustam Oripov tomonidan "Hamza uy-muzeyi nega xarobaga aylandi?" tanqidiy maqola e'lon [qilingan](#). Maqolada Farg'ona tumanining Avval qishlog'i "Etti buloq" guzari yonida joylashgan Hamza uy-muzeyining bugungi kunga kelib xarobaga aylangani tanqid qilingan. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi vaziyatni o'rganib chiqib, unga quyidagi munosabatni bildiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2017-2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida" 2017-yil 11-dekabrda 975-sonli qaroriga asosan Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining filiali hisoblangan Hamza Hakimzoda Niyoziy memorial muzeyi faoliyati tugatilgan. SHu o'rinda ma'lumot uchun, Farg'ona viloyatida hozirgi kunda Qo'qon davlat muzey-qo'riqxonasining filiali sifatida Hamza uy-muzeyi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Qarang: <https://lex.uz/docs/3451889>

“Sagitta” nomiga o‘zgargan. 2012-yili utilizatsiya qilingan. 1989-yilda Hamza Hakimzoda Niyoziy tavalludining 100 yillik yubileyi munosabati bilan SSSRning pochta markasi va 1 so‘mlik yubiley tangasi zarb qilindi²⁹.

XULOSA

Hamza Hakimzoda Niyoziy o‘z vaqtida lirik she‘rlar, ma‘rifiy kitoblar, dramalar muallifi sifatida tanilgan. Ayni paytda u yurtimizda sovetlar hokimiyati o‘rnatilganidan so‘ng sovet hukumati mafkurasining kurashchisi va targ‘ibotchisiga aylangani, vafotidan keyin esa uzoq yillar davomida “o‘zbek sovet adabiyoti va madaniyatining asoschisi” kabi balandparvoz ta‘riflar bilan soxta qadrlanib kelingan edi. Ya‘ni bunday siyosat zahirida Mahalliy xalqdan chiqqan yozuvchi, ziyoli inson sotsializmga, markazdagi rahbarlarga ana shunday sadoqat bilan xizmat qilishi kerak, degan ayyorona va siyosiy bir g‘oya borligini, o‘ylaymizki, tushunish qiyin emas.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Салмонов А. Ўзбекистонда совет ҳокимиятининг диний сиёсати: уйдирма ва тарих ҳақиқати. – Тошкент: Тафаккур, 2015. – Б.86. (Salmonov A. Religious policy of the Soviet government in Uzbekistan: fiction and historical reality. – Tashkent: Tafakkur, 2015. – P.86).
2. Россия-Средняя Азия:политика и ислам в конце XVIII-начале XXI века. Ответственный редактор:Ф.М.Мухаметшин. – Москва: Издательство Московского университета, 2013. – С. 286. (Russia-Central Asia: politics and Islam in the late XVIII-early XXI centuries. Managing editor: F.M. Mukhametshin. - Moscow: Moscow University Press, 2013. - P. 286).
3. Россия - Средняя Азия:политика и ислам в конце XVIII-начале XXI века. – С. 319. (Russia-Central Asia: politics and Islam in the late XVIII -early XXI centuries. – P. 319).
4. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккита китоб. Биринчи китоб 1917-1939 йиллар / Масъул муҳаррирлар: Р. Абдуллаев, М. Раҳимов, Қ. Ражабов. – Тошкент. O‘zbekiston, 2019. – Б. 444.(History of Uzbekistan (1917-1991). Two books. The first book 1917-1939 / Responsible editors: R. Abdullaev, M. Rahimov, Q. Rajabov. – Tashkent. Uzbekistan, 2019. – P. 444).
5. Эгамназаров А. Сургун. – Тошкент: Адолат, 1999. – Б. 11-12.(Egamnazarov A. Exile. – Tashkent: Adolat, 1999. – P. 11-12).
6. Халид А. Ўзбекистон таваллуди: илк СССР даврида миллат, империя ва инқилоб. – Тошкент: Академнашр, 2022. – Б. 352.(Khalid A. Birth of Uzbekistan: Nation, Empire and Revolution in the Early USSR. - Tashkent: Akademnashr, 2022. – P. 352).
7. Наим Саид. Адиб ва жамоатчи Ҳамза Ҳакимзода Ниёзийнинг хотиралари // Қизил Ўзбекистон. 1929 йил 5 апрел, № 22. (Naim Said. Memoirs of writer and public figure Hamza Hakimzada Niyazi // Red Uzbekistan. April 5, 1929, No. 22).
8. Ўзбекистон миллий архиви, Р-34-фонд, 1-рўйхат, 1074-иш, 5-варақ. (National Archives of Uzbekistan, fund R-34, list 1, case 1074, sheet 5).
9. Исмоилов Э. Ҳамза номидаги театр. – Тошкент: ЎзССР давлат бадиий адабиёт, 1957. – Б. 17. (Ismailov E. Theater named after Hamza. – Tashkent: UzSSR state literature, 1957. – P. 17).
10. Исмоилов Э. Ҳамза номидаги театр. – Б. 54. (Ismailov E. Theater named after Hamza. – P. 54)
11. Ўзбекистон миллий архиви, Р-2454-фонд, 1-рўйхат, 180-иш, 327-варақ. (National Archives of Uzbekistan, Fund R-2454, List 1, Case 180, Sheet 327).
12. Ҳамза. Тўла асарлар тўплами. Беш томлик. Том 5. – Тошкент: Фан. 1989 – Б. 281. (Hamza. A complete collection of works. Five roofs. Volume 5. - Tashkent: Fan. 1989. – P. 281).
13. Ўзбекистон миллий архиви, Р-2454-фонд, 1-рўйхат, 199-иш, 108-варақ. (National Archives of Uzbekistan, Fund R-2454, List 1, Case 199, Sheet 108)
14. Ҳамза. Тўла асарлар тўплами. Беш томлик. Том 5. – Б. 281-282. ((Hamza. A complete collection of works. Five roofs. Volume 5. – P. 281-282).
15. Ўзбекистон миллий архиви, Р-837-фонд, 38-рўйхат, 4683-иш, 7-варақ. (National Archives of Uzbekistan, fund R-837, list 38, case 4683, sheet 7).
16. Ўзбекистон миллий архиви, Р-837-фонд, 38-рўйхат, 4683-иш, 2-варақ. (National Archives of Uzbekistan, fund R-837, list 38, case 4683, sheet 2).
17. Ўзбекистон миллий архиви, Р-2532-фонд, 1-рўйхат, 118-иш, 40-варақ. (National Archives of Uzbekistan, fund R-2532, list 1, case 118, sheet 40).
18. Ўзбекистон миллий архиви, Р-837-фонд, 38-рўйхат, 4683-иш, 2-варақ. (National Archives of Uzbekistan, fund R-837, list 38, case 4683, sheet 2).
19. Ўзбекистон миллий архиви, Р-837-фонд, 38-рўйхат, 4683-иш, 24-варақ. (National Archives of Uzbekistan, fund R-837, list 38, case 4683, sheet 24).

²⁹ 1 rubl (so‘m) SSSR tangasi 1,8 million nusxada ishlab chiqarilgan. Tanganing diametri 31 mmni, og‘irligi esa 12,8 grammni tashkil qiladi. Tanganing ustiga Hamzaning portreti rassom A.V.Baklanov tomonidan chizilgan. Bu tanga Sovet Ittifoqining 1965-1991 yillar davomida ishlab chiqarilgan 68 ta yubiley tangalari majmuasiga kiritilgan. Qarang: <https://www.fcoins.ru ›catalog› catalogusrub13728>

20. Ўзбекистон миллий архиви, Р-837-фонд, 38-руйхат, 4683-иш, 19-20-варақ. (National Archives of Uzbekistan, fund R-837, list 38, case 4683, sheet 19-20).
21. Қулфиддинов Х. Жаннатмакон диёр. – Фарғона: “Фарғона” нашриёти, 2008. – Б. 39. (Qulfiddinov Kh. Paradise. – Fergana: "Fergana" publishing house, 2008. – P. 39).
22. Қайюмов Л. Ҳамза. – Тошкент: Ёш гвардия, 1973. – Б. 262. (Kayumov L. Hamza. - Tashkent: Young Guard, 1973. – P. 262).
23. Ҳамза. Асарлар. Икки томлик, Том 1-2. – Тошкент: Бадиий адабиёт нашриёти, 1960. – Б. 107. (Hamza. Works. Two-story, Tom 1-2. – Tashkent: Literary Publishing House, 1960. – P. 107).
24. Ўзбекистон миллий архиви, Р-1803-фонд, 3-руйхат, 135-иш, 275-варақ. (National Archives of Uzbekistan, Fund R-1803, List 3, Case 135, Sheet 275).
25. Усмонов Ж. Ҳамза Ҳакимзода қадамжолари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. – Б. 57. (Usmanov J. Steps of Hamza Hakimzada. - Tashkent: Literature and Art, 1989. – P. 57).
26. Ўзбекистон миллий архиви, Р-2487-фонд, 3-руйхат, 572-иш, 12- варақ. (National Archives of Uzbekistan, fund R-2487, list 3, case 572, sheet 12).
27. Ўзбекистон миллий архиви, Р-2487-фонд, 3-руйхат, 572-иш, 18-варақ. (National Archives of Uzbekistan, fund R-2487, list 3, case 572, sheet 18).
28. Усмонов Ж. Ҳамза Ҳакимзода қадамжолари. – Б. 61. (Usmanov J. Steps of Hamza Hakimzada. – P. 61).
29. Ҳамза Ҳакимзода ижоди проблемалари. / Масъул муҳаррир: Б.Назаров. – Тошкент: Фан, – Б. 282. (Problems of Hamza Hakimzada's creativity. / Responsible editor: B. Nazarov. - Tashkent: Fan, – P. 282).
30. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б.257. (Kasimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizaev Sh., Ahmedov S. Uzbek literature of the period of national renaissance. - Tashkent: Spirituality, 2004. – P. 257).
31. Комил Яшин. Ҳамза. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёт, 1982. (Kamil Yashin. Hamza. - Tashkent: Gafur Ghulam Literature and Art Publishing House, 1982).
32. ЎзРФА Давлат адабиёт музейи архиви, 120-фонд (Ҳамза архиви), 6-ҳужжат, 15-варақ. (Archives of the State Literary Museum of the Russian Federation, fund 120 (Hamza archive), document 6, sheet 15).
33. Усмонов Ж. Ҳамза Ҳакимзода қадамжолари. – Б. 89. (Usmanov J. Steps of Hamza Hakimzada. – P. 89).
34. Усмонов Ж. Ҳамза Ҳакимзода қадамжолари. – Б. 94. (Usmanov J. Steps of Hamza Hakimzada. – P. 94).
35. Усмонов Ж. Ҳамза Ҳакимзода қадамжолари. – Б. 92. (Usmanov J. Steps of Hamza Hakimzada. – P. 92).